

NEMIS TILI GRAMMATIKASINI O‘YIN SHAKLIDA O‘RGANISHNING AFZALLIKLARI

Xolisxon Husainova Komiljonovna

Buxoro davlat pedagogika instituti nemis tili fani o'qituvchisi

Stolingizga qaytib o‘tiring! Ko‘zlaringizni yuming va maktab davrlaringizdagi chet tili darslarini eslang. Ularni o‘tkazishda qachon o‘yinlardan foydalangan edingiz, yana bir bor o‘ylab ko‘ringchi, nima uchun o‘qituvchingiz bunday o‘yinlarni aynan chet tili darslarida o‘tkazgan?

Ehtimol ular juda ham kam bo‘lgandir, balki 2 yoki 3 ta, balki umuman bo‘lmagandir.

Germaniyada bu mavzu allaqachon chet til didaktikasiga kirib kelgan va asosiy mavzulardan biriga aylangan. Ammo har bir mamlakatning o‘ziga xos odatlari va o‘rganish an‘analari mavjud. Agar nemis tilini chet tili sifatida o‘rganadigan talabalar va uni o‘rgatuvchi o‘qituvchilardan „o‘yin & grammatika“ mavzusi haqidagi fikrlarini so‘rasak, ko‘pincha ulardan quyidagicha fikrlarni eshitamiz:

- „bizda maktabda o‘ynalmaydi.....“
- „Grammatikada o‘yin bilan nima ham qilish mumkin...“
- “Mening o‘quvchilarim juda ham ko‘p, shuning uchun darsda o‘yin o‘ynashimizning imkoni yo‘q,.....”
- „o‘quvchilar ishlashlari kerak, o‘z vaqtlarini o‘yin bilan bekor o‘tkazishlari emas...“
- „Meni o‘quvchilarim o‘ynashni xoxlamaydilar, ular biror narsani o‘rganishni istaydilar.“

So‘nggi yillarda esa ko‘plab „Chet tili darslarida o‘yinlar“ mavzusida insholar va o‘yin to‘plamlari yaratildi. Shunday bo‘lishiga qaramay, rejalashtirilgan o‘rganishga mo‘ljallangan dars o‘yinlari bundan mustasno. Darsliklarda ham ba‘zi-ba‘zida o‘yin mashqlari bo‘ladi. Bundan ham kam uchragani esa grammatika mazvusiga bagishlangan o‘yinlar, ya‘ni grammatik o‘yinlardir. Biz sizlarga darslaringiz davomida o‘yinli mashqlarni ko‘paytirishga va grammatik bilimlarni boshqacha yo‘llar yordamida mustahkamlashga, ular bilan turli mashqlar bajarishga va amalda qo‘llashda yaxshi kayfiyat uygotishga yordam berishini xoxlaymiz. Biz buning uchun shunchaki turli o‘yinlarni tasvirlab berish niyatida emasmiz, bu narsalarni o‘yinlar to‘plamida yetarli darajada yoki kamroq bo‘lsa ham bayon etilgan. Bunda chet tili darslarida o‘yinning faqatgina nazariy tizimlashtirilishi haqida gap ketmaydi, ya‘ni ular amaliy chet tili darslariga hech qanday foyda keltirmaydi. Biz buning o‘rniga turli o‘yinlarning tamoyillarini tasvirlab bermoqchimiz. Bular faqat bir grammatik tuzilishga ega bo‘lgan va ma‘lum bir mavzu doirasida qo‘llash mumkin bo‘lgan o‘yin tamoyillari emas. Siz

ularni o'z mavzuyingizga va o'rgatayotgan guruhingizning o'ziga xos xususiyatlariga qarab turli variantlarda qo'llashingiz mumkin, ularni o'z ish uslubingiz va sharoitingizga moslashtirishingiz mumkin. Bu harakatingiz bilan "Mashq" va "o'yin" o'rtasidagi qarama-qarshilikni yo'qotgan bo'lasiz.

Avvalo ishni o'yinlar tamoyillarini tasvirlab berishdan boshlaymiz, chunki o'yinlar bilan tanishib chiqish eng ko'p e'tibor talab qiladigan mavzu hisoblanadi. Darsda o'yinlardan foydalanish uchun o'yin tuzilishini o'qib chiqish va tushunish yetarlimas. O'yin mazmuni o'qish va tushunish bir narsa bo'lsa, o'yinlarni o'ynab ko'rish – bu umuman boshqa narsa. Shuning uchun o'yinlarni iloji boricha faqat o'qish bilan cheklanib qolmasdan, ularni o'z darslarimizda qo'llash to'grisida bosh qotirishimiz kerak bo'ladi. O'yinlarni dars jarayonida qo'llashga alohida e'tibor bilan yondashish kerak, bundan ham muhimi esa o'ynab ko'rish kerak.

O'quvchilarning faolligi iloji boricha shu savolga javob berish uchungina bo'lib qoladi. Bu esa ularning o'qituvchining ko'ziga ko'rinmaslikka va javob bermaslikka undaydi. Agar o'qituvchi o'quvchilardan bunday mashqlarni navbatma-navbat, ya'ni qator bo'yicha so'ray boshlasa, o'quvchilar tezlik bilan o'zlariga qaysi so'z yoki gap to'g'ri kelishini hisoblab chiqadilar, qaysi savolga javob berishlarini bilib, shunga tayyorgarlik ko'radilar. Bunda ularning avval egallagan bilimlari relativ mexanik tarzda yodlaridan ko'tarilib ketadi. Shuning uchun o'quvchilarni avval egallagan bilimlarini eslariga tez-tez solib turish va ularni qayta-qayta qo'llashga undash kerak bo'ladi. Aks holda o'quvchilar o'qituvchining savoligagina javob qaytaradilar.

Bayon etish va so'rovning bunday modelini quyidagi kamchiliklari mavjud va ular nisbatan ko'p deya baholanadi:

- O'qituvchi doimo dars markazida turadi;
- Dars davomidagi aloqalar faqat bir o'quvchi va o'qituvchi tomonidan amalga oshiriladi;
- Xatolarni nazorat qilish va to'g'rilash faqat o'qituvchi tomonidan amalga oshiriladi;
- O'quvchilar amaliy jihatdan cheklanib qoladilar va o'qituvchi harakatlariga javob reaksiyasini bildiradilar;
- Topshiriqni to'ldirish va boyitish uchun umuman hech kim hapakat qilmaydi;
- O'quvchilarning faqat kichik bir guruhigina nimadir "ayta" olishlari mumkin, qolganlari esa indamay darsni tugatadilar.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. FUNK, Hermann a Michael KOENIG. Grammatik lehren und lernen. 10. Dr. Berlin ; München [u.a.]: Langenscheidt, 2007.
2. Gerngross G, Puchta H. Wilfried. N- Grammatik kreativ. – Berlin: Langenscheidt, 1999.
3. GLÜCK, Helmut. Metzler Lexikon Sprache. Weimar:

Metzler, 1993

4. Hadumod Bußmann. Lexikon der Sprachwissenschaft. 4. Durchgesehene und bibliographisch erg. Aufl. / Editor Stuttgart: Alfred Kröner, 2008.

5. Handbuch Fremdsprachenunterricht. 5. Aufl. Tübingen: Francke, 2017

6. Harro Gross, Klaus Fischer. Grammatikarbeit im Deutsch-als-FremdspracheUnterricht. Editor. München:Judicium Verlag, 1990.

7. Harro Gross, Klaus Fischer. Grammatikspiele Deutsch als Fremdsprache 1. Aufl., 2. [Dr.]. Editor Stuttgart [u.a.]: Klett, 2000.